

BUXORO VILOYATI VOBKENT TUMANIDA 2021-2023 YILLARDA AMALGA OSHIRILGAN TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISH JARAYONI

Tohir Toirjonov, Ilyos Sulaymonov, Mirodil Shorasulov

TDIU MMT-86 guruh talabalari

Annotatsiya: Buxoro viloyat Vobkent tumanida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tashabbusli budjetlashtirish jarayoni, uni amalga oshirish mexanizmi va moliyalashtirish amaliyoti yoritilgan.

Kalit so'zlar: Taklif berish, mahalliy budget, mablag' ajratish, moderatsiya, ovoz berish, g'olib loyihani aniqlash, qoldiq mablag', moliyalashtirilgan tadbirlar.

So'nggi yillarda mamlakatimizda budget ma'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, budget mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'naliшlaridan biri tegishli hudud mahalliy budgetidan amalga oshiriladigan xarajatlar yo'naliшlarini belgilashda fuqarolar faol ishtirokini ta'minlanishidir. Xalqaro tajribadan ma'lumki, fuqarolarning budget jarayonida ishtirok etishi shaffoflik va ochiqlikni ta'minlashga, jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga, bu orqali davlat organlari faoliyatining samaradorligini oshirishga va korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliш bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 avgustdag'i «Budget ma'lumotlarining ochiqligini va budget jarayonida fuqarolarning ishtirokini ta'minlash choratadbirlari to'g'risida»gi PQ-3917-sون Qarori muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur Qarorga muvofiq, 2019 yildan boshlab budget mablag'larini taqsimlashda fuqarolar ishtirokini ta'minlash maqsadida tuman (shahar)lar budgetlari qo'shimcha manbalarining kamida 10 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirishni nazarda tutadigan mexanizm joriy etilgan edi. 2021-yilga kelib bu miqdor 30 foiz qilib belgilandi. Ushbu o'tkazilayotgan islohatlar natijasini Buxoro viloyati Vobkent tumani misolida o'rganib chiqdik.

Biz Buxoro viloyati Vobkent tumanida 2021-2023 yillar kesimida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" dagi o'zgarishlarni tahlil qildik. Ushbu yillarda jami "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" ga 30 256 mln so'm ajratilgan bo'lib, shundan tadbirlarni moliyalashtirishga 28 408,7 mln so'm ajratilgan.

1-jadval

Buxoro viloyati Vobkent tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori

(mln. so'mda)

T/r	Ko'rsatkich nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Yil boshiga qoldiq	0,0	748,3	1 131,9

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-MAY, 2024

2.	Hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga o‘tkazilgan mablag‘lar	2 210,5	10 427,2	1 7618,3
3.	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan	1 500,0	10 043,7	16 865,0
3.1.	Bajarilgan ishlар uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag‘	1 447,1	9 996,7	1 5262,2
3.2.	Hisobvaraqlardagi qoldiq	15,5	47,0	289,2
4.	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da qoldiq mablag‘	747,9	1 131,9	1 561,0

Yuqoridagi jadvalda Buxoro viloyati Vobkent tumani tashabbusli budgetlashtirish bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar keltirilgan. Tashabbusli budgetlashtirishning 2021-yilda shahar(tuman)lar budgetida ortiqcha mablag'lar mavjud bo'lamaganligi sababli yil boshidagi qoldiq shakllanmagan. 2022-2023- yillarda bu ko'rsatkich miqdori mos ravishda 748,3 va 1 131,9 mln. so'mni tashkil etgan. “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga o‘tkazilgan mablag‘lar 2021-yilda 2210,5 mln.so'mni, keying yilda bu ko'rsatkich 4,7 barobarga ortib 10 427,2 mln. so'mni, 2023-yilda esa 59.2% ga ko'payib 17 618,3 mln. so'mni tashkil etgan.

2021-yilda “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar 1 500 mln. so'mni tashkil etgan bo'lib, buning ichida bajarilgan ishlар uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag‘lar 1 447,1 mln. so'mni, hisobvaraqlardagi qoldiq mablag‘lar esa 15,5 mln. so'mni tashkil etgan. 2022-yilda “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun o'tgan yilga qaraganda sal kam 6,7 barobar ko'p mablag‘lar ajratilgan. 2023-yilda esa bazis davrga nisbatan 11,2 barobar ko'p pul ajratilgan. Buning ichida bajarilgan ishlар uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag‘lar 2022-2023-yillarda mos ravishda 9 996,7 va 15 262,2 mln. so'mni tashkil etgan. Hisobvaraqlardagi qoldiq mablag‘lar esa 47,0 hamda 289,2 mln. so'mni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin.

“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da qoldiq mablag‘ yillar kesimida mos ravishda 747,9 mln. 1 131,9 mln. va 1561,0 mln. so'mni tashkil etgan. Qoldiq mablag‘lar oldingi yillarga nisbatan 1,5 va 1,4 martaga ortganini ko'rishhimiz mumkin.

Biz Buxoro viloyati Vobkent tumani tashabbusli budgetlashtirishda amalga oshirilgan tadbirlarni 2021-2023 yillar kesimida tahlil qilish natijasida shuni aniqladikki, ushu yillar mobaynida jami 50 ta loyiha 28 408,7 mln so'mga tashabbusli budget orqali moliyalashtirildi. Moliyalashtirilgan loyihalarning katta qismini “Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va jihozlash” yo‘nalishidagi loyihalar tashkil qilgan.

2-jadval

Buxoro viloyati Vobkent tumani tashabbusli budgetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-MAY, 2024

T/r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni			Sarflangan mablag'		
		2021-yil	2022-yil	2023-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
	Jami	17	15	18	1500,0	10043,7	16865,0
1.	Hududiy ichki yo'llar	-	5	6	-	4583,2	7460,0
2.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash	13	3	4	972,0	1597,5	2970,0
3.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	1	2	1	50,0	749,4	600,0
4.	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	1	2	3	48,0	1002,4	2500,0
5.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	1	1	1	185,0	1617,6	850,0
6.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	1	2	-	245,0	493,6	-
7.	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari	-	-	1	-	-	900,0
8.	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish)	-	-	-	-	-	-
9.	Boshqa tadbirlar	-	-	2	-	-	1585,0

Jadvalni tahlil qilish jarayonida shuni ko'rishimiz mumkinki, 2021 yilda jami 17 ta loyiha moliyalashtirishga jami 1 500 mln so'm ajratilgan va shuning deyarli 80% umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash hissasiga to'g'ri kelgan va bu uchun umumiyy sarflangan mablag' 972 mln so'mni tashkil qilgan. 2022 yilga kelib moliyalashtirilgan takliflar soni 15 tani tashkil qilganiga qaramasdan, umumiyy ajratilgan mablag'lar 2021 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan va 10 043,7 mln so'mni tashkil qilgan. Bundan 4 583,2 mln so'm hududiy ichki yo'llarni tamirlash hissasiga to'g'ri kelgan va ja'mi 6 ta loyiha moliyalashtirilgan. Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash bo'yicha ushbu yilda 3 ta loyiha g'olib deb topilgan hamda 1 597,5 mln so'm mablag' ajratilgan. Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash, sog'liqni saqlash hamda muassasalarini ta'mirlash va jihozlash va ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash bo'yicha har birda 2 tadan loyihani moliyalashtirilga jami 343 mln so'm sarflangan.

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-MAY, 2024

Vobkent tumanining 2023-yil tashabbusli budgetlashtirish natijalariga qaraydigan bo'lsak, o'tgan yillarga nisbatan g'olib loyihalarning soni sezilarli ravishada oshmagan bo'lsa-da, moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar hajmi 16 865 mln so'mni tashkil qilgan. Bu shuni anglatadiki, loyihalarning o'rtacha qiymati ham oldingi yillarga nisbatan yuqori bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

3-jadval

Buxoro viloyati Vobkent tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari

(mln. so'mda)

Ushbu jadvalda biz Buxoro viloyating Vobkent tumanı Fuqarolar tashabbusli jamg'armasining mablag'larning shakllanish manbalarini tahlil qilar ekanmiz 2021 yilda Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllantirishda tuman mahalliy

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari		2021-yil	2022-yil	2023-yil
Tuman mahalliy budgeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar			6396,4	7936,2
Mahalliy budgetining yil boshiga shakllangan Erkin qoldiq mablag'lari				1131,9
Tuman mahalliy budgeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar		1327,5	2331,0	1435,0
Erkin qoldiq mablag'lari			2500,0	336,0
Shu jumladan	Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi	1327,5	1081,0	1099
	Iqtisod qilingan mablag'lar			
Fuqarolar takliflarini barchasini qanoatlantirish maqsadida respublika budgetidan ajratilgan mablag'		883,0	1699,8	850,0
Viloyat mahalliy budgetining qo'shimcha mablag'larining 30% miqdorida ajratilgan mablag'lar				5991,4
Jami ajratiladigan mablag'lar		2210,5	10427,2	17618,3

budgeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'laridan jami yil mobaynida 1 327,5 mln so'm va fuqarolar takliflarini barchasini qanoatlantirish maqsadida respublika budgetidan ushbu yilda 883 mln so'm ajratilganini ko'rishimiz mumkin. 2021- yil 13 apreldagi Prezidentning "Byudejet jarayonida fuqarolar ishtirokini takomillashtirish qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ 5072 sonli qaroriga muvofiq 2022 yil yanvar oyidan boshlab esa respublikaning barcha tumanlarida mahalliy

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-MAY, 2024

budgetning tasdiqlangan umumiy xarajatlaring 5 foizini jamoatchilik fikri asosida yo'naltirish belgilandi va shunga muvofiq 2022-yilda tashabbusli budgetlashtirishning har bir mavsumga qo'shimcha 3 198,2 mln so'm miqdordagi mablag' ajrtildi va jami 10427,2 mln so'mni tashkil qilgan. 2023-yilda qolgan yillardan farqli ravishda qo'shimcha 1 131,9 mln so'm mahalliy budgetining yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag'lari va 5 991,4 mln so'm viloyat mahalliy budgetining qo'shimcha mablag'larining 30% miqdorida ajratilgan mablag'lar hisobidan tashabbusli budgetga yo'naltirilgan.

4-jadval

Buxoro viloyati Vobkent tumani tashabbusli budgetlashtirish natijasida amalga oshirilhan loyihalar tarkibi

T/r	Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Jami to'plagan ovozlar soni	Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori (mln. so'm)
2021-yilda			
1.	So'fidexxon MFY 18-son umumta'lim maktabiga kapital remont qilish	1713	82,0
2.	Vobkent tuman 4-umumiy o'rta ta'lim makkabida yerlarni obodonlashtirish hamda aholi istemoli uchun makkab hududida artizan quduq o'rnatish	1263	8,0
3.	Vobkent tuman tibbiyot birlashmasiga avtoklav meditsinskiy zarur	1217	48,0
4.	Tumanning 22-son matabining sport zali avarin holatida iltimos qaytadan qo'rilib qo'shilishiga mablag' ajratib qo'rib berishingizni so'rayman	734	260,5
5.	Vobkent tuman 10-umumiy o'rta ta'lim makkabida yerlarni obodonlashtirish hamda aholi istemoli uchun makkab hududida artizan quduq o'rnatish	614	8,0
6.	Mo'minobod MFY xududida joylashgan 40-son makkab binosi xamda xonalarini to'lik tamirlash	574	95,0
7.	Vobkent tuman 8-umumiy o'rta ta'lim makkabida yerlarni obodonlashtirish hamda aholi istemoli uchun makkab hududida artisan quduq o'rnatish	500	7,5
8.	Vobkent tuman "Shakarkent" MFY xududiga	384	245,0

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-MAY, 2024

	aholisiga ichimlik suvi bilan ta'minlash		
9.	Vobkent tuman 17-umumiyl o'rta ta'lism maktabida yerlarni obodonlashtirish hamda aholi istemoli uchun maktab hududida artizan quduq o'rnatish	342	8,0
10.	Vobkent tuman 19-son maktabning o'quv binosini ta'mirlab bering talab darajasida emas	273	255,0
11.	Vobkent tuman 31-son maktabini ta'mirlash	252	100,0
12.	23-son maktabning o'yingoxini mukammal ta'mirlash	237	75,5
13.	Vobkent tuman 6-son maktab internatining xona eshiklari yaroqsiz holga kelgan yangilash lozim	108	185,0
14.	Shakarkent MFY xududidagi 21-son maktabining o'quv partalarini yangilash	102	65,0
15.	Vobkent tuman 35-umumiyl o'rta ta'lism maktabida yerlarni obodonlashtirish hamda aholi istemoli uchun maktab hududida artizan quduq o'rnatish	67	8,0
16.	Tumannig 11-maktabini ekin yerlarini so'g'orish uchun suv nasosi o'rnatish	39	15,0
17.	Kosari mfy xududidagi 36-son mttning bolalar o'yingohi va xojatxonalarini ta'mirlash	36	34,5

2022-yilda

1-mavsum

1.	"Shakarkent" MFY ning Og'are qishlog'i hududiga 6,5 km ga ichimlik suvi torish	2541	764,5
2.	"Guliston" MFY hududida joylashgan Paxtakor OSHP ning to'liq ta'mirlash	2320	579,2
3.	Cho'rikalon qishlog'ini 1,2 km, ichki yo'llarni asfaltlashtirish	2257	673,7
4.	Tumandagi 29-son MTTning 200 metr atrof qismini temir panjara bilan o'rash	2158	265,1
5.	Vobkent tumani 1-son maktabga baskedbol plashatkasini qurish	2138	452,9
6.	"Beshrabod" mahallasi 9,2 km ga ichimlik suvi tarmog'ini tortish	1930	853,0

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-MAY, 2024

7.	Nayman qishlog‘ini 1,5 km bo‘lgan ichki yo‘llarini asfal’lashtirish	1928	912,7
8.	G‘aribshoh qishlog‘ini ichki yo‘llarni 1.2 km asfaltlashtirish	1920	620,0

2-mavsum

1.	Cho‘rikalon qishlog‘ini eni 4,5 metr uzunligi 3 km ichki yo‘llarni asfaltlashtirish.	3233	1183,8
2.	Tibbiyot birlashmasiga EOP rentgenapparatini olish uchun	3084	423,2
3.	2-son umumta’lim maktabi stadionini zamonaviy ta’mirlash.	2694	548,0
4.	25-son DMTTning atrofini temir panjara bilan o‘rash.	2624	484,3
5.	31-maktab binosini joriy ta’mirlash.	2582	596,7
6.	Qumbosti qishlog‘ini 2,2 km ichki yo‘llarini asfaltlash	2539	1193,0
7.	"Yoshlar xiyobonini" joriy ta’mirlash	2501	493,6

2023-yilda

1-mavsum			
1.	Vobkent tumani tibbiyot birlashmasiga qarashli "Xayrxush" MFY da joylashgan 9-sonli oilaviy polikilinika binosini joriy ta'mirlash	4206	900,0
2.	"So‘fidexqon" MFY So‘fidexqon qishlog‘i va Astarbob qishlog‘ini 2 km masofa ichki yo‘llarini asfaltlashtirish	3302	1100,0
3.	"Cho‘rikalon" MFY Cho‘rikalon qishlog‘i tabiy gaz er osti kuvurini 159 diametrli 3,5 km qayta tamirlash vaxalqalashtirish	3236	1200,0
4.	23-son maktabga mebel jihozlarini olish	3222	500,0
5.	Vobkent tumandagi "Shohnigor" MFY da joylashgan 17-son DMTTning 465 m atrofini zamonaviy temir panjara va devor bilan o‘rash, talim tashkilotida qorovulkxonada qurish xamda ichki eshiklarini zamonaviy MDF romlariga almashtirish va tom qismini joriy ta'mirlash	3175	600,0
6.	Vobkent tuman 9-maktabni joriy ta'mirlash	3140	750,0

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-MAY, 2024

7.	Toshmasjid qishlog'ini 2 400 metr masofasini asfaltlashtirish	3120	1200,0
8.	"Shohnigor" MFY Yangikent, Shishmaxa va Niyogan qishloqlaridan o'tuvchi 2500 m yo'lni asfaltlashtirish	3102	1200,0
9.	Tadbirkor ko'chasida joylashgan markaziy poliklinikaga 40 kWt lik quyosh paneli o'rnatish	3090	600,0
10.	Cho'rikalon qishlog'ini zamonaviy 200 dona sim yog'och (sip kabellar b.n) va 630 KWA transformator o'rnatish	3032	900,0
11.	Vobkent tuman 20-sон мактаб биносини юрий та'mirlash	2911	400,0
12.	Binokor ko'chasida joylashgan Sport mакtabni sport jihozlari xarid qilish	2870	385,0
13.	I.Buxoroiy ko'chasida joylashgan 1-сон kasb hunar maktabining eshik va derazalarin akfa romlariga almashtirish	2857	850,0

2-mavsum

1.	Xajuvon MFY Buzunduvon qishlog'idagi 2500 metr ichki yo'llarni asfaltlashtirish.	10007	1320,0
2.	Yuqori Teraklik qishlog'ini asfaltlashtirish	7060	1320,0
3.	Vobkent tuman Ko'lodina MFY ichki yo'llarini asfaltlashtirish	6434	1320,0
4.	Vobkent tuman tibbiyat birlashmasiga tibbiy jixozlar sotib olish.	6334	1000,0
5.	Nayman qishlogida joylashgan 8-Maktabda futbolni yanada rivojlantirish sport bilan shugullanish maqsadida 8-maktab stadionida xar biri 40x20 metrdan ikkita suniy koplamlari (gazon) o'yingox qurish (suniy koplama tushash, atrofini mustaxkam setka bilan urash va tungi chiroklar urnatish va tuliq jixozlash)	5388	1320,0

Buxoro viloyati Vobkent tumani miqyosida 2021-2023 yillarda tashabbusli budjetlashtirish orqali amalga oshirilgan loyihalarni ko'rib chiqamiz. Vobkent tumanida

moliyalashtirilgan loyihamda to'plangan ovozlar soni yildan-yilga oshib borganini ko'rishimiz mumkin. Bu o'z navbatida keyingi yillarda jalb qilingan aholining qamrovi sezilarli darajada ko'payganidan dalolat beradi. 2021-yilda g'olib bo'lган 17 ta loyihamda jami to'plagan ovozlar soni 8 455 tani tashkil qilgan. 2021-yil davomida o'tkazilgan tasahbusli budgetlashtirishda eng ko'p ovozlar to'planga loyiha – "So'fidexqon MFY 18-son umumta'lim mакtabiga kapital remont qilish" va 1 713 ta ovoz to'plagan. Bu loyihamda 82,0 mln so'm ajratilgan. Ushbu yilda hattoki 36 ta ovoz to'plab, "Kosari mfy xududidagi 36-son mttning bolalar o'yingohi va xojatxonalarini ta'mirlash" loyihasi 34,5 mln so'mga amalga oshirilgan. 2022-yilda tashabbusli budget orqali moliyalashtirilgan 15 ta loyiha to'plagan jami ovozlar soni 2021-yilga nisbatan 332% ga oshib, 36 519 ta bo'lган. Ushbu yilda barcha g'olib loyihamda

2 000 ta atrofida ovoz to'planganini ko'rishmiz mumkin. G'olib bo'lган loyihamda ichida eng ko'p mablag' sarflanganlariga qaraydigan bo'lsak, "Cho'rikalon qishlog'ini eni 4,5 metr uzunligi 3 km ichki yo'llarni asfaltlashtirish" va "Qumbosti qishlog'ini 2,2 km ichki yo'llarni asfaltlash" loyihamda mos ravishda 1 183,8 mln so'm va 1 193,0 mln so'm pul mablag'lari ajratilgan. Vobkent tumanida 2023-yilda o'tkazilgan tasahbusli budgetlashtirishda 517 ta loyiha takliflari kelib tushgan va bundan 18 ta g'olib deb topilgan loyihamda jami 76 486 ta ovoz to'plagan. "Xajuvon MFY Buzunduvon qishlog'idagi 2500 metr ichki yo'llarni asfaltlashtirish" loyihasi eng ko'p 10 007 ta ovoz to'plab g'olib bo'lган va 1 320 mln so'm mablag' sarflangan.

Yuquridagi jadvalarni tahlil qilish natijasida xulosa qiladigan bo'lsak, Buxoro viloyati Vobkent tumanida 2021-2023 yillarda o'tkazilgan tasahbusli budgetlashtirish misolida budget sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasini o'sayotgan raqamlarda ko'rishmiz mumkin. 2021-2023 yillardagi 5 mavsumda Vobkent tumanida jami 20 ta "Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash" yo'nalishidagi loyihamda g'olib deb topilishi bilan bu tumandagi dolzarb muammolardan biri aynan maktablar bilan bog'liqligini bilishimiz mumkin. Va quvonarli jihat shundaki bu ko'rsatgich yildan yilga pasayib, ushbu tumanda tashabbusli budgetlashtirish sohasidagi ishlar nechog'lik o'z samarasini berayotganini ko'rishmiz mumkin. Tashabbusli budget jarayoni fuqarolarning faol ishtirokini va u jamiyatdagi shaxslarni bir muammoni hal qilish yo'lida birlashtirmoqda.

Foydalanimdan adabiyotlar:

1. Вахобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент: "Шарқ. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O'quv qo 'llanma." Toshkent: Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
4. Malikov T, Haydarov N. Budget daromadlari va xarajatlari. O'quv qo 'llanma, Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA. 2007.
5. Маликов ТС. Ҳайдаров НХ "Молия: умумдавлат молияси". Ўкув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.: "Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Budget: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma, Toshkent "IQTISOD-MOLIYA. 2008.
9. Ўрқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017

10. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
11. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-хуқуқий асослари - Science and Education, 2022
12. Ўроқов У, Иргашев И, Файбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
13. UY O'roqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
14. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффоғлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
15. Ўроқов У. Файбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press. 2016.
16. Урков У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий карашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
17. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртларо конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
21. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг хуқуқий асослари.- Science and Education, 2023
22. G'aybullayev O, O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. T.: Baktria press. 2016;168.
23. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
24. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журналы. 2020.
25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления.“Молия” илмий журналы. 2022.
26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
28. Masharipov I.B. MODERNIZATION OF THE ELECTORAL SYSTEM IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY. The Way of Science International scientific journal. 2020. 6 (76)